

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Ro'yxatga olindi  
BD-5110900 -3.06  
2016 yil 25 08



**XALQ PEDAGOGIKASI. QIYOSIY PEDAGOGIKA**

**FAN DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 – pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5110900 – pedagogika va psixologiya

Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2016-yil "15" 08 dagi  
"Б"-sonli buyrug'ining 2-ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha  
O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2016-yil  
"1" 08 dagi "2"-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida  
ishlab chiqildi va turdosh oliy ta'lif muassalari bilan kelishildi.

#### **Tuzuvchilar:**

Egamberdiyeva N.M. – Nizomiy nomidagi TDPU "Pedagogika"  
kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor

Mutalipova M.J. – Nizomiy nomidagi TDPU "Pedagogika"  
kafedrasi dotsenti

#### **Taqrizchilar:**

Qurbanov SH. – 1-Toshkent pedagogika kolleji direktori,  
pedagogika fanlari doktori, professor

Xakimova M. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
«Kasb ta'limi (iqtisodiyot)» kafedrasi mudiri, pedagogika  
fanlari doktori, professor

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
o'quv -uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2016- yil «4»  
04 dagi 10-sonli bayonnomasi).

## **Kirish**

Ushbu dastur xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlarini o‘quv-tarbiyaviy jarayonga tadbiq etish, xalq pedagogikasida oila va oilaviy tarbiyaning aks etishi, xalq pedagogikasida yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalar, xalq pedagogikasi va o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, xalq pedagogikasi va xalq og‘zaki ijodida dostonlar, xalq pedagogikasida milliy urf-odatlar, an’analor, udumlar, marosimlarning tarbiya vositasi sifatidagi o‘rni, xalq pedagogikasida diniy ta’limotlar, xalq pedagogikasida xalq amaliy san’ati va madaniyatining o‘rni, o‘zbek xalqining muomala madaniyati, ahloqiy me’yorlari, turmush kechirish tartib-qoidalarini o‘rganishning tarbiyaviy ahamiyatini o‘z ichiga qamrab oladi.

Shuning bilan, ushbu dastur qiyosiy pedagogikaning maqsadi, vazifasi, qiyosiy pedagogikaning rivojlanish bosqichlari, qiyosiy pedagogika fani rivojlanishida xalqaro tashkilotlar va ularning faoliyati, jahon mamlakatlari ta’limi taraqqiyoti masalalari, Yevropa mamlakatlarida ta’lim-tarbiya masalalarining olib borilishi va qiyosiy tahlil, Osiyo mamlakatlarida ta’lim-tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari va ularning qiyosiy tahlili, rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya tizimi va qiyosiy tahlil, Markaziy Osiyo davlatlarida ta’lim-tarbiyaning o‘ziga xosliklarini o‘z ichiga qamrab olgan.

### **Fanning maqsadi va vazifalari**

Fanni o‘qitishdan maqsad – bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy imkoniyatlarga boy xalq pedagogikasi manbalari bilan tanishtirish hamda bo‘lajak o‘qituvchilarni jahon va respublikamizda pedagogika taraqqiyotining qiyosiy tahliliga doir bilimlar bilan qurollantirish.

Fanning vazifasi – talabalarni xalq pedagogikasi manbalaridan foydalana olishga o‘rgatish; xalq pedagogikasi manbalari asosida yoshlarni tarbiyalashga oid ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va talabalarni jahon va respublikamizda pedagogika fanining rivojlanishini qiyosiy tahlil qilishga o‘rgatish; jahon pedagogikasining rivojlanish tendentsiyalarini to‘la anglay olish qobiliyatini shakllantirishdan iborat.

### **Fan bo‘yicha talabalarining bilim, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar**

“Xalq pedagogikasi. Qiyosiy pedagogika” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- o‘zbek xalq pedagogikasining maqsadi, vazifalari, mazmun mohiyati;
- xalq ta’lim va tarbiya an’analardan o‘quv-tarbiya jarayonida foydalanish yo‘llari;
- xalq pedagogikasi o‘zbek xalqining tarixiy va boy madaniyatining ajralmas qismi ekanligi;
- xalq pedagogikasining pedagogik fanlar tizimidagi o‘rni;

- o'zbek xalqining milliy madaniyatini va ma'naviyatining o'ziga xos jihatlari va tarbiyaviy ahamiyatlari;
- fan bo'yicha nazariy bilimlarga ega bo'lishi;
- qiyosiy pedagogika fanining nazariyi va metodologik asoslarini;
- fanning maqsad va vazifalarini o'zlashtira olishi;
- QPning taraqqiyot bosqichlari;
- «qiyosiy pedagogika»ning asosiy manbalari haqida **bilimga**;
- xalq pedagogikasi manbalari va ularda aks etgan o'zbek xalqining ta'limgarbiya haqidagi tajribalarini;
- xalq pedagogikasining didaktik va tarbiyaviy imkoniyatlarini;
- xalq pedagogikasida o'qitish metodlarini;
- xalq pedagogikasi va O'rta Osiyo buyuk mutafakkirlarining pedagogik g'oyalaridagi uyg'unlikni;
- xalq og'zaki ijodining xalq pedagogikasidagi o'rnini;
- xalq pedagogikasida milliy urf-odatlar, an'analar, bayramlar, milliy o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyatini;
- oila tarbiysi va ma'naviyatining xalq pedagogikasi manbalarida ifodalanishini;
- xalq pedagogikasida yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalarini;
- diniy ta'limatlarning xalq pedagogikasidagi o'rnini;
- xalq pedagogikasida o'zbek milliy san'ati, madaniyati va ma'naviyatining ifodalanishini;
- o'zbek xalqining axloqiy me'yorlari , milliy tarbiya madaniyatini;
- xalq tarbiya nazariyasida tabiatni muhofaza qilish va sog'lom turmush tarzi haqidagi bilimlarini;
- pedagogik tizimlarni taqqoslash texnologiyasini;
- Qiyosiy pedagogikada tadqiqotlar tipologiyasini;
- O'zbekiston va Osiyo davlatlari ta'limgarbiya tizimining o'ziga xos jihatlarining qiyosiy tahlilini;
- jahonning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlaridagi ta'limgarbiya jarayonlarini samarali amalga oshirish yo'llarini;
- jahonning rivojlangan mamlakatlarida ta'limgarbiya tendentsiyalarini;
- jahonning rivojlangan mamlakatlarida ta'limgarbiya muammolari, istiqboli to'g'risida ma'lumotlarni o'rganish **ko'nikmasiga**;
- “xalq pedagogikasi”ning didaktik va tarbiyaviy imkoniyatlarini o'quv tarbiyaviy jarayonga tadbiq etish yo'llarini aniqlash;
- erkin fikrlovchi barkamol shaxsni shakllantirishda xalq pedagogikasi manbalaridan foydalananishda ta'limgarbiya tizimining axborot texnologiyalarini qo'llay olish;
- fan bo'yicha turli adapiyotlarni o'qib o'rganish va tahsil qilish;
- fan bo'yicha mustaqil izlanish;
- O'zbekiston, AQSH, Yevropa va Osiyo davlatlari ta'limgarbiya tizimining o'ziga xos jihatlarini qiyosiy tahlil qilish;
- turli davlatlar ta'limgarbiya tizimini ilmiy qiyoslay olish mahoratlarini shakllantira olish **malakasiga ega bo'lishi lozim**.

## **Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

“Xalq pedagogikasi. Qiyosiy pedagogika” fani umumkasbiy fan hisoblanib, 5-6-7-szemestrlarida o‘qitiladi. Dasturni amalga oshirish o‘quv rejasida rejalashtirilgan gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy (O‘zbekiston tarixi, huquqshunoslik, ma’naviyat asoslari, dinshunoslik, madaniyatshunoslik), matematik va tabiiy-ilmiy (yosh fiziologiyasi va gigiena, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish), umumkasbiy (pedagogika nazariyasi, oila pedagogikasi, pedagogika tarixi, ijtimoiy pedagogika) fanlar bilan o‘zaro aloqada olib boriladi.

### **Fanning ta’limdagi o‘rni**

“Xalq pedagogikasi. Qiyosiy pedagogika” fani pedagogik fanlarning muhim sohalaridan biri bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonida xalq pedagogikasining turli manbalaridan samarali foydalana olish pedagogik jarayonning samaradorligini ta’minlaydi. Bo‘lajak pedagoglarni xalq pedagogikasi manbalari bilan tanishtirish va ulardan foydalana olishga o‘rgatishda va O‘zbekiston Respublikasi hamda jahonda pedagogika fani taraqqiyotini qiyosiy tahlil etib o‘rganish pedagogika fanining rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bo‘lajak pedagoglarda pedagogika fani taraqqiyotini qiyosiy tahlil eta olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda mazkur fan alohida ahamiyatga ega

### **Fanni o‘qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Talabalarning Xalq pedagogikasi. Qiyosiy pedagogika fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan, ya’ni "Klaster" metodi, "Zigzag" va boshqa zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalinish, yangi informatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik va o‘quv qo‘llanmalar, seminar ishlasmalari, tarqatma materiallar va elektron materiallardan foydalilanadi. Seminarlarda mos ravishdagi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalilanadi.

Seminar mashg‘ulotlarida "Aqliy hujum", "Tarozi", "Bumerang" pedagogik texnologiyalaridan, kichik guruuhlar musobaqlari, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo‘llash nazarda tutiladi.

## **Asosiy qism**

### **I Bo'lim. Xalq pedagogikasi. Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni**

Xalq pedagogikasi milliy tarbiyaning asosi sifatida. Xalq pedagogikasining pedagogika fanlari tizimidagi o'rni. Kursning predmeti, obyekti, maqsadi va vazifalari. Xalq pedagogikasining boshqa pedagogika fanlaridan farqi. Mazkur fanni o'rganishning dolzarbligi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'larning milliy yo'naliishiga qo'yilgan talablar.

#### **Xalq pedagogikasining didaktik va tarbiyaviy imkoniyatlarini ta'lum jarayoniga tatbiq etish**

Xalq pedagogikasi manbalari. Xalq pedagogikasi manbalarida tarbiyaviy mazmun va g'oyalalar. Xalq pedagogikasida bola – ta'lum va tarbiya obyekti va subyekti sifatida. Yurtimiz ta'lum tizimida xalq pedagogikasi g'oyalari va tarbiya tajribasidan foydalanish imkoniyatlari.

#### **Xalq pedagogikasida oila va oilaviy tarbiyaning aks etishi**

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda xalq pedagogikasi manbalarining o'rni. Oilada milliy va umuminsoniy qadriyatlar. Xalq pedagogikasida oila ma'nnaviyati. Sevgi va oilaviy munosabatlar. Barkamol shaxs tarbiyasida oilaning muhim ahamiyati. O'zbek xalq pedagogikasida oila va oilaviy munosabatlar.

#### **Xalq pedagogikasida yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalari**

Xalqimizning yosh avlodni tarbiyalash tajribasi. Xalq pedagogikasida tushuntirish, namuna ko'rsatish, ogohlantirish, iltimos qilish, koyish va boshqa bir qator tarbiyalash metodlarining mayjudligi va ulardan yoshlarni tarbiyalashda foydalanish yo'llari. Xalq pedagogikasi va avlodlar vorisligi.

#### **Xalq pedagogikasi va o'zbek xalq og'zaki ijodi**

O'zbek xalqining yozma va og'zaki ijodi. Xalq og'zaki ijodining ma'nnaviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ahamiyati. Xalq og'zaki ijodi xususiyatlari va janrlari. Qo'shiqlar, maqol va matallar, afsonalar va rivoyatlar, asotirlar va masallarning axloqiy tarbiyadagi o'rni. Xalq ertaklarining o'ziga xos xususiyatlari. «Avesto» yovuzlik ustidan adolat, ezzulik g'alabasi ramzi.

#### **Xalq pedagogikasi va xalq og'zaki ijodida dostonlar**

Dostonlar bebaaho qadriyatlar majmui. Dostonlarning o'ziga xos xususiyatlari. Lirik, epik, dramatik dostonlar. Qahramonlik dostonlari, jangnomalar,

tarixiy, romantik, kitobiy dostonlar. Dostonlarning tarbiyaviy ahamiyati. Dostonlarda qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik g'oyalarining aks etishi.

### **Xalq pedagogikasida milliy urf-odatlar, an'analar, udumlar, bayramlar, marosimlarning tarbiya vositasi sifatidagi o'rni**

Milliy urf-odatlar, an'analar, marosimlarning mohiyati va tarbiyaviy ahamiyati. Xalq o'yinlari va o'yinchoqlar. Oilaviy an'analar. Tarbiyaviy an'analar. Bayramlar. Xalq sayllari. Davlat bayramlari, diniy bayramlar. Xalq bayramlari turlari. Milliy urf-odatlar va an'analarning e'zozlanishi, avlodlarga me'ros goldirilishi va ularning barqarorligining ta'minlanishi.

### **Xalq pedagogikasida milliy o'yinlarning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati**

O'zbek xalqining boy o'yinlar merosi. Xalq o'yinlarining qadimiyligi va tarbiyadagi o'rni. Milliy o'yinlarning turlari.

### **Xalq pedagogikasida diniy ta'limotlar**

Diniy bag'rikenglik. Diniy adabiyotlar – pedagogik fikrlar manbai sifatida. Diniy fanatizm, fundamentalizm, terrorizm xavf-xatari – diniy savodsizlik oqibati ekanligi. Diniy ta'limot, hadislarning tarbiyaviy ahamiyati.

### **Xalq pedagogikasida xalq amaliy san'ati va madaniyatining o'rni**

Xalq pedagogikasida xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi. Tarixiy yodgorliklar va milliy me'morchilik. Milliy musiqa va qo'shiqchilik san'ati, xalq raqs san'ati va teatr. Dorbozlik. Qo'g'irchoq teatri, uning tarixi. Tasviriy san'at. Xalq amaliy san'ati, tasviriy san'at, musiqa san'ati yosh avlodni estetik tarbiyalashda muhim omil sifatida.

### **O'zbek xalqining muomala madaniyati, ahloqiy me'yorlari, turmush kechirish tartib-qoidalalarini o'rganishning tarbiyaviy ahamiyati**

Farzand tarbiyasida mahallaning o'rni. Sof insoniylar: sahiylik, xushmuomalalik, oliyanoblik, halollik, insonparvarlik va b. Barcha ijobjiy xislatlarni bola tarbiyasiga singdirishda xalq pedagogikasi manbalarining ahamiyati.

### **Milliy musiqa, qo'shiqchilik va milliy teatrlar xalq pedagogikasining tarbiya vositasi sifatida**

Milliy musiqa, qo'shiqchilik va milliy teatrlar xalq pedagogikasida estetik tarbiya omili sifatida. Ularning psixologik va tarbiyaviy ahamiyati.

## **Xalq pedagogikasi manbalarida ustoz- o'qituvchi kasbinining ulug'lanishi**

Ustoz- shogird munosabatlarining xalq pedagogikasi manbalarida ifodalaniishi. Xalq og'zaki ijodi janrlarida ustozga nisbatan hurmat-ehtirom masalalari.

## **Xalq tarbiya nazariyasida tabiatni muhofaza qilish va sog'lom turmush masalalari**

Xalq pedagogikasida tabiat va inson munosabatlari. Tabiat bilan bog'liq mavsumiy bayramlar, marosimlar va qadriyatlari. Sog'lom turmush tarziga oid xalq tajriba maktabi. Xalq og'zaki ijodi janrlarida xalq tabobati, tabiatga oqilona munosabat va sog'lom turmush tarzi masalalari.

### **Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlarida talabalarda xalq pedagogikasiga doir bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilinadi.

Seminar mashg'ulotlarining taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. "Xalq pedagogikasi" fani va manbalarini o'rganishning dolzarbligi.
2. Xalq pedagogikasida oilaviy tarbiyaning aks etishi.
3. Xalq pedagogikasida yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalari.
4. Xalq pedagogikasi va o'zbek xalq og'zaki ijodi janrlarining tarbiyaviy ahamiyati.
5. Xalq pedagogikasi manbalarida mehnatsevarlik tarbiyasi.
6. Qahramonlik, jangnoma, tarixiy, romantik dostonlarni o'qish va tahlil qilish.
7. Xalq pedagogikasi manbalarida nafosat tarbiyasining aks etishi.
8. Milliy urf-odatlar, an'analar va udumlarning ahamiyati va tarbiyaviy kuchi.
9. Xalq amaliy san'ati muzeyi xalq pedagogikasi manbalarining ko'zgusi sifatida.
- 10.Ta'lim-tarbiya jarayonida diniy ta'limotlarning o'rni.
- 11.O'zbekiston xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi.
- 12.Xalq pedagogikasi manbalarida insonparvarlik g'oyalarining ifodasi.
- 13.O'zbek xalqining muomala madaniyati
- 14.O'zbek oilalarining o'ziga xos xususiyatlari.
- 15.Hadislarning mazmun mohiyati va tarbiyaviy ahamiyati.
- 16.Hadislarda ilm o'rganish masalalari.
- 17.Xalq pedagogikasida vatanparvarlik tarbiyasining ifodalaniishi.
- 18.Xalq pedagogikasida atrof-muhit va tabiatni asrashga oid azaliv qadriyatlari.
- 19.Sog'lom turmush tarzi haqida xalq tajribasi.

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish jarayonida talabalar pedagogikaga oid darslik va o'quv qo'llanmalaridan foydalangan holda,

ma’ruza mashg‘uloti jarayonida egallagan bilimlarini yanada boyitishadi hamda ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishadi. Seminar mashg‘ulotlari amaliy topshiriqlarni bajarish bilan uzviylikda amalga oshiriladi.

### **Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Talaba mustaqil ta’limni tayyorlashda mazkur fanning muayyan o‘ziga xosliklarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- 1) darslik va o‘quv qo‘llanmalardan foydalanib, barcha mavzularni o‘rganish;
- 2) tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruza qismilarini o‘zlashtirish.

Talabalarning mustaqil ta’limi har bir ma’ruza mavzusi asosida tashkil etiladi.

Fanni o‘rganish jarayonida mustaqil ta’limning bir necha turlaridan foydalaniladi:

- 1) adabiyotlar bilan ishslash;
- 2) ijodiy ish;
- 3) ba’zi mavzular bo‘yicha referatlar tayyorlash.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta’lim mavzulari:

1. I.A.Karimovning “Yosh avlod tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanish borasidagi g‘oyalari”ni o‘rganish.
2. Xalq pedagogikasida tarbiya uslublari.
3. Xalq tarbiyasi va avlodlar vorisligi.
4. Marosimlar va ularning xalq hayotidagi o‘rni va tarbiyaviy ahamiyati.
5. Maqollar va matallar –dono fikrlarning ixcham ifodasi.
6. Xalq pedagogikasida ota-onalar farzandlar munosabatlарining ifodalaniishi.
7. Xalq pedagogikasida ustoz-shogird tizimi.
8. Hozirgi kunda xalq pedagogikasini o‘rganishga bo‘lgan shart-sharoitlar.

### **II Bo‘lim. “Qiyosiy pedagogika”**

Qiyosiy pedagogikaning pedagogika fanlari tizimidagi o‘rni. Kursning predmeti, obyekti, maqsadi va vazifalari. Qiyosiy pedagogikaning boshqa pedagogika fanlaridan farqi. Mazkur fanni o‘rganishning dolzarbliji.

#### **Qiyosiy pedagogikaning nazariy –metodologik asoslari**

Qiyosiy pedagogikada metodologik yondashuvlar. Melioristik yondashuv, tarixiy-falsafiy yondashuv, fanlararo yondashuv, ma’lumotli yondashuv, etnomadaniy yondashuv.

#### **Qiyosiy pedagogik tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlari**

Qiyosiy pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari: tavsiflash metodi, statistik metod, tarixiy metod, sosiologik va analitik metod.

## **Qiyosiy pedagogikaning taraqqiyot bosqichlari**

Fan taraqqiyotining birinchi davri. Qiyosiy pedagogika fani taraqqiyotining ikinchi va uchinchi davri, ularning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘zlashtirish, bashorat, ilmiy-qiyosiy tadqiqotlar davri. Qiyosiy pedagogikaning rivojlanish bosqichlari.

### **Pedagogik tizimlarni taqqoslash texnologiyasi va tadqiqot qilish bosqichlari**

Qiyosiy pedagogik tizim: pedagogikaning xalqaro, regional; milliy tajribalarini qiyoslashga yo‘naltirilishi. Zamon va makon omillariga ko‘ra pedagogik tizimlarni taqqoslash. Qiyosiy pedagogik tizimni pog‘onaviy xarakterda o‘rganish.

### **Qiyosiy pedagogikada tadqiqotlar tipologiyasi va OO‘Yularida ta’lim variativligi**

B.Xolmzning ma’lumotlar taksonomiysi. Qiyosiy –tadqiqot metodlari. Qiyosiy tadqiqotlarning bosqichlari. Induktiv metod, gipotetik- deduktiv metod. Qiyoslash metodining tuzilishi: deskripsiya, interpretasiya, qiyoslash. Davlatlararo, OO‘Yulararo ta’lim tizimini qiyoslash bosqichlari.

### **Oliy ta’lim tiziminining tipologik- tasnifiy mezonlari va ta’lim muassasalari nufuzi**

Oliy ta’lim tiziminining tarixiy rivojlanishiga ko‘ra, ixtisoslik kesimiga ko‘ra, tanlov tamoyillariga ko‘ra, ta’lim oluvchilar tarkibiga ko‘ra, ta’lim shaklining ustunligiga ko‘ra tipologik mezonlari. Ta’limning an‘anaviy va noan‘anaviy shakllari.

### **Qiyosiy pedagogika fani rivojlanishida xalqaro tashkilotlar va ularning faoliyati**

YUNESKO tashkilotining ta’lim sohasidagi faoliyati. YUNISEF MOT(XMT) xalqaro tashkilotining vazifalari va ta’lim-tarbiya jarayonlari yuksalishidagi o‘rni. MOT(XMT) xalqaro tashkilotining kasbiy ta’limni rivojlanirishga doir faoliyati.

### **Osiyo mamlakatlarida ta’lim-tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari va ularning qiyosiy tahlili**

O‘zbekiston va Osiyo davlatlarida maktabgacha, boshlang‘ich, o‘rta, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim. Osiyo davlatlari ta’lim tiziminining o‘ziga xos va farqli jihatlari.

## **AQSH va Yevropa mamlakatlarida ta'lim-tarbiya masalalarining olib borilishi va qiyosiy tahlil**

O'zbekiston va AQSH ta'lim tizimining qiyosiy tahlili. Yevropa davlatlarida ta'lim-tarbiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari. Pedagogika fani taraqqiyotidagi o'ziga xosliklar: umumiylik va tafovut.

### **Jahon mamlakatlari ta'limi taraqqiyotining ayrim masalalari**

Jahon mamlakatlarda ta'limni integrasiyalashtirish va kasbga yo'naltirish masalalari. Ta'limni differensiyalashtirish muammolari va maxsus maktablar faoliyati. Integratsion va masofaviy ta'lim.

### **Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlarida talabalarda qiyosiy pedagogikasiga doir bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilinadi.

Seminar mashg'ulotlarining taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Qiyosiy pedagogika fani taraqqiyotining davriy xususiyatlari; mazmuni, maqsadi, vazifalari.
2. YUNESKO va b. xalqaro tashkilotlarining ta'lim sohasini rivojlantirishdagi faoliyati.
3. Osiyo mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston-Xitoy ta'lim tizimini qiyosiy tahlil qilish.
4. Yaponiya, Koreya mamlakatlarda ta'-lim-tarbiya masalalarining qiyosiy tahlili.
5. Evropa mamlakatlarda ta'lim-tarbiya masalalarining olib borilishi va qiyosiy tahlil. Polsha, Buyuk Britaniya ta'lim tizimi.
6. Frantsiya mamlakati ta'lim tizimi.
7. Germaniya, Angliya mamlakati ta'lim tizimi.
8. O'zbekiston Belgiya ta'lim tizimining qiyosiy tahlili Jahonda masofaviy ta'limning rivojlanishi.
9. Italiya va Ispaniyada ta'lim-tarbiya masalalarining olib borilishi va qiyosiy tahlili.
10. AQShda ta'lim tizimining qiyosiy tahlili.
11. Avstriya, Avstraliya va Shveysariya davlatlaridagi ta'lim tizimiga qiyosiy tahlil.
12. Turkiya va Singapur ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari.
13. MDH davlatlarining ta'lim tizimi va o'ziga xos xususiyatlari.
14. Rossiyada qiyosiy pedagogika fani taraqqiyoti va pedagogik jarayonlar.
15. Jahonda masofaviy ta'limning rivojlanishi.
16. Jahon mamlakatlarda ta'limni integrauylash va differenuiyalashtirish muammolari hamda kasbga yo'naltirish masalalari.

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish jarayonida talabalar pedagogikaga oid darslik va o'quv qo'llanmalaridan foydalangan holda, ma'ruza mashg'uloti jarayonida egallagan bilimlarini yanada boyitishadi hamda ko'nikma va malakalarga ega bo'lishadi. Seminar mashg'ulotlari amaliy topshiriqlarni bajarish bilan uzviylidka amalga oshiriladi.

### **Mustaqil ta'limga tashkil etishning shakli va mazmuni**

Mustaqil ta'limga har bir ma'ruza mavzusi asosida tashkil etiladi. Bunda mustaqil ishning bir necha turlaridan foydalaniлади:

- 1) adabiyotlar bilan ishlash;
- 2) ijodiy ish;
- 3) ba'zi mavzular bo'yicha referatlar tayyorlash;
- 4) internet va axborot manbalaridan doimiy foydalananish.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limga mavzulari:

1. Juhon mamlakatlari ta'limga tizimining integratsiyalashuvi.
2. Zamonaliviy qiyosiy pedagogik masalalar taraqqiyoti.
3. Juhon mamlakatlari qiyosiy pedagogika jamiyatlarining faoliyati va vazifalari.
4. Qiyosiy pedagogika fanining tadqiqot metodlari.
5. Juhon mamlakatlari qiyosiy pedagogik izlanishlarning ilmiy-nazariy manbalari.
6. Frantiya ta'limga tizimining «Dual bosqichi» xususiyatlari.
7. Hindiston ta'limga tizimi va qiyosiy tahsil.
8. Germaniyada bolalarning huquqiy vakolatlari.
9. Afrika mamlakatlari ta'limga tarbiya jarayonlari.
10. Italiya ta'limga tizimi.
11. Malayziya ta'limga tizimi.
12. Singapur ta'limga tizimi.
13. Kanadada ta'limga tarbiya jarayonlari.
14. Shvetsiyada umumta'limga tizimining o'ziga xos xususiyatlari.
15. Juhonning rivojlangan mamlakatlarda tarbiyaviy jarayonlarning etnik xususiyatlari.
16. Qiyosiy pedagogikaning xalqaro vazifalari.
17. Juhon mamlakatlarda ta'limga integratsiyalash va differenasiyalashtirish muammolari.
18. MDH davlatlarining ta'limga tizimi va o'ziga xos xususiyatlari.xos xususiyatlari
19. Jahonda masofaviy ta'limga rivojlanishi.
20. Globalizatsiya va qiyosiy pedagogika.

## Fan dasturining informatsion-uslubiy ta'minoti

### Didaktik vositalar

**Didaktik vositalar ro'yxati beriladi.**

- **jihozlar va uskunalar, moslamalar:** elektron doska-Hitachi, LCD-monitor, elektron ko'rsatgich (ukazka).
- **video-audio uskunalar:** video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.
- **kompyuter va multimediali vositalar:** kompyuter, Dell tipidagi proektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok).

### Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Каримов И.А. Юксак маънавият –енгилмас куч. – Т., 2008 й.
2. Mutualipova M.J. Xalq pedagogikasi (o'quv qo'llanma). – Т., 2011 у.
3. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi (darslik). - Т., 2005 у. 287-297-б.
4. Вулфсон Б.Ф. Сравнительная педагогика (Учебное пособие) – М., 2003 г.

### Qo'shimcha adabiyotlar

1. Hoshimov K., S.Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi (o'quv qo'llanma). – Т., 1995 у.
2. Munavvarov A. Oila pedagogikasi. (o'quv qo'llanma). – Т., 1994 у.
3. Фаниев Ж.Ф. Хорижда таълим (o'quv qo'llanma). – Т., 1995.

### Elektron ta'lif resurslari

1. www. tdpuz. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Zyonet. uz
4. www. edu. uz
5. tdpuz-INTRANET. Ped

